

## TABIATNI FALSAFIY ANGLASH ZARURATI, VA UNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

---

**Sattorov M.**

*SamDVMCHBU, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrası f.f.b.f.doktori (Phd) o’qituvchisi*

**Ostonov J.**

*SamDVMCHBU, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrası katta o’qituvchisi*

**Anotatsiya.** Tabiat o’zining mavjudligi bois inson va insonlar jamoasi uchun ijtimoiy makon hisoblanadi. Tabiat obyektiv qonunlar asosida, aniq mexanizmga amal qilib, uning xodisalari tartiblilikdan-tartibsizlikka aksincha tartibsizlikdan-tartiblilikka o’tishining zamirida inson va insonlar jamoasining ilmiy va noilmiy bilimlari doirasida shakllangan munosabatlari yotadi. Tabiatda insonlarning hayot kechirishlari uchun zaruriy manba sanalishi bois uni asrab, avaylash uning ne’matlaridan to’g’ri foydalanish davr talabi darjasiga ko’tarilgan ijtimoiy muammolarimizdan biriga aylanib ulgirdi.

**Kalit so’zlar.** Tabiat, Inson, tabiat falsafasi, tabiatning ko’rkam manzarasi, mehnat faoliyati, ruhiy faoliyat, estetik faoliyat, Kuzatish, bilish, obyektining muhim xossalari va munosabatlari.

Inson tabait bag’rida yashaydi, ijod etadi, faoliyat ko’rsatadi, uning ko’rkam manzarasidan zavq oladi. Tabiatning saxovatli marhamatlaridan bahramand bo’ladi. Tabiat, u qanday ko’rinishda bo’lishidan qa’ti-nazar, o’zgacha gashtli fusunkor bo’lishi mumkin. Bizni o’rab turgan tabiatning ko’rkam manzarasi nafaqat qushlar, xonishi, musavvirlar, shoirlar, bastakor-mashshoqlar, xonandalar uchun ilhombaxsh ko’rinish bo’libgina qolmasdan, balki kishilarning ruhiyatini yengillashtiruvchi ma’naviy ozuqa beruvchi tabiiy manba bo’lib xizmat qiladi.

Tabiat falsafa fanining obyektini hisoblanib insonlarning amaliy faoliyatlari kechadigan makon hisoblanadi. Tabiatga inson va insonlar jamoasi tomonidan munosabat bildirilishi qadimgi davrlarga borib taqalsada, uning xodisalarini to’g’ri tushunish, to’g’ri anglash, tabiat xodisalarining rang-barangligi va o’zgaruvchanligi, insonlarni qiziqtirib ayni vaqtda o’z ehtiyojlarini qondirishda, inson o’zining mo’ljali va rejalarini amalga oshirishlari uchun ham uni o’rganish, uning xodisalarining mohiyatini mushohada, qilish kishilik faoliyatining kundalik mashg’ulotlari sirasiga kirgan.

Tabiat o’zining mavjudligi bois inson va insonlar jamoasi uchun ijtimoiy makon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib aytganda tabiat va uning xodisalari, ne’matlari

insonlarning ehtiyojlarini qondiruvchi manba hisoblanib kelingan. O'z navbatida tabiat va uning xodisalari insonda bilim va bilim soxalarining shakllanishiga osos bo'lib, tabiat falsafasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Tabiatni bugungi kunning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'rganish, unga nisbatan munosabat bildirish, uning na'matlarini sarf qilish nafaqat bugungi balki ertangi kun uchun ham muhim vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

Tabiat insoniyat bilimining manbai sifatida insonlarni doim o'ziga maftun etib kelgan. Shu bois insonlar tabiatga, o'z nuqtai-nazarlaridan kelib chiqib, uni bilishga intilib kelgan va kelmoqdalar. Insonning o'z manfaatlaridan kelib chiqib tabiatni bilishga intilishi, tabiat ekotizmlarining munozanatini buzulishini keltirib chiqarishi, uning oqibatlarini yumshatishni, insonlarni o'zlari his qilib uni bartaraf qilishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Insoniyatning tabiatga nisbatan ko'rsatgan qarashlar tarixidan xulosa chiqarish, hozirgi va kelajak avlod uchun muhim ro'l bajarishini unitmasligimiz lozim. Tabiatga insonlarning antropogen va texnogen ta'sirlari tufayli, aziyat chekayotganligi, bugungi kunning global ekologik muammolarining keltirib chiqishini muqarar qilib, uning ta'sirini insonlarni hayot faoliyati qiyin kechayotganligi va ularning so'g'liqlaridagi o'zgarish hamda ularning tez-tez takrorlanib turishining o'zi uning xafiligini ko'rsatadi.

Tabiat obyektiv qonunlar asosida, aniq mexanizmga amal qilib, uning xodisalari tartiblilikdan-tartibsizlikka aksincha tartibsizlikdan-tartiblilikka o'tishining zamirida inson va insonlar jamoasining ilmiy va noilmiy bilimlari doirasida shakllangan munosabatlari yotadi. Tabiatda insonlarning hayot kechirishlari uchun zaruriy manba sanalishi bois uni asrab, avaylash uning ne'matlaridan to'g'ri foydalanish davr talabi darjasiga ko'tarilgan ijtimoiy muammolarimizdan biriga aylanib ulgirdi.

Shundan kelib chiqib aytganda tabiatni falsafiy anglashni ya'ni ilmiy to'g'ri deb hisoblangan dalillar asosida yondashish, keng mushohada va tahlil qilish orqali tabiatga munosabat bildirish, insonlarning kundalik bilimlarining to'g'ri shakllantirib, o'zlarining mo'ljallarini tez va ixcham bajarishda muhim ro'l o'ynaydi. Tabiat va uning ne'matlarining ulug'vorligi, rang-baranligi, o'ziga xos takrorlanmasligi, bir-biridan shaklan va mazmunan ajralib turishligi, tabiatni o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Tabiat keng ma'noda barcha tirik mavjudodlarni makoni sifatida, o'zida biologik xilma-xillikni ifoda etadi. Tabiatdagi har bir xodisa va jarayon bir-biriga ichki va tashqi bog'langan dialektik tarzda, o'tib turishlik esa inson va tabiatni bir butun organizm sifatida olib qarash, tabiat va uning resurslariga nisbatan maqsadga, muvofiq ravishda munosabat bildirishni anglatib, ayni vaqtda inson va insonlar faoliyati shu asosga tayanib qurilmog'i lozim. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekistonni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan muhim vazifalar sifatida belgilangan, bioxilma xillikni asrash, ularni muhofaza qilish, inson salomatligiga ta'sir o'tkazuvchi o'tkir ekologik xavf-xatarlatni

oldini olish va ularni bartaraf qilishga doir, bir qancha ko'rsatma va yo'l-yo'riqlar, amaliy usullar orqali amalga oshirilishi belgilab berilgan. Tabiat va uning xodisalarini ilmiy o'rganish orqali faoliyat belgilash maqsadida tabiatga va inson munosabatlarini tartibga solishni yangicha mexanizmlari to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Bu munosabatlar zamirida tabiatni jonli organizm, sifatida bilish uning ne'matlaridan oqilona foydalanish, ilmiy isbotlangan dalil va faktlarga tayanib munosabat bildirish nafaqat tabiat, qolaversa inson tabiatni bir qismi, ekanligini bilish tabiat va insonni buguni va ertasi uchun muhim sanaladi. Har qanday ekologik tahdid insonlar faoliyatining tartibsizligining oqibati hisoblanib, tabiat resurslarini insonlar tomonidan ilmga tayanmasdan o'z boshimchalik bilan yondashganligining, o'zi bugungi kunda tabiat ekotizmlarini tabiiy holati va muozanatini buzilishiga olib keldi va olib kelmoqda. Bu munosabat esa o'z navbatida tabiatning estetik jozibadorligini yo'qolishini keltirib chiqarmoqda. Tabiat inson ehtiyojlarini qondiruvchi manba bo'lishi bilan birga inson va insonlar jamoasining ma'naviy huzurlanishi, tabiat xodisalaridan estetik zavq olishi, lazzatlanishi, hotirjamlik tuyg'ularini qaror topishida tabiat o'zining ko'plab imkoniyatlariga ega hisoblanadi. Insonning maqsadga muvofiq faoliyat yurgizishi, insonning tabiat qonuniyatlarini moxiyatan anglab uni tushunganligini bildiradi. Shu asosda insonni tartibli harakati vujudga kelib, harakat natijasida bildirilgan munosabat tabiat xodisalarini inson tomonidan tafakkur qilish orqali, tahlil qilib mushoxada ko'rigidan o'tkazilganligini o'zida aks ettiradi.

Inson tomonidan tabiat butun borliqning tiriklik qismini tashkil etuvchi makon sifatida qarab, uning qonuniyatlariga muvofiq ravishda ta'sir qilish, uning xossa va xususiyatlariga falsafiy, ilmiy yondashish hozirgi kun uchun dolzarbligi, bois, insonlar jamoasining tabiatga nisbatan munobat bildirishlari va amaliy ishlarning natijalari esa kelajak avlod vakillari uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Bu jarayonlarning natijalari vaqt o'tishi bilan voqeylikka aylanishi insonlar oldiga qator vazifalarni bajarishni talab qiladi. Insonlar bugungi kun talabidan, kelib chiqib tabiatni anglash, ta'sir qilish, har doim tabiatga insonlar ma'suliyat va javobgarlik ko'zi bilan qarashi uni asrash, himoya qilish, unga to'g'ri munosabatni qaror toptirish insonlarni oldidagi muhim vazifa hisoblanib tabiatni barcha qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni falsafiy anglash tarixiy zarurat hisoblanadi.

Inson tabiat qo'ynida yashab har doim maqsadli foyliyat olib boradi. Badiiy adabiyot inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bog'liq bo'lgan “mehnat faoliyati”, “ruhiy faoliyat”, “estetik faoliyat” kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Boz ustiga ruhiy faoliyatning o'zi aqliy, hissiy ruhiy faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Asrlar davomida adabiyot insoniyat bilan birga yashadi. Uning orzu-umidlari sari yo'l boshlovchi mayoq bo'ldi. Hayotdagi qiyinchiliklar, his-tuyg'ular, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar-hammasi unda aks etdi,

odamlar dardiga malham bo’ldi, ularni ezgulik sari yetakladi. Shuning uchun ham uni sevib ardoqladilar. Adabiyot doimo ijtimoiy muhit bilan hamohang ravishda rivojlandi va o’zida aks ettiradi.

Barcha fanlar insoning ehtiyojlarini cheksizligini, tabiiy resuslarni esa cheklanganligini amaliy isbotladilar. Shundan xulosa qilib aytish, mumkinki tabiiy resuslarni cheklanganligi insonning o’sib boruvchi ehtiyojlarini ro’yobga chiqishini qiyinlashtiradi. Shunday holatlarda inson o’sib boruvchi ehtiyojini normal darajada ta’minlash uchun tabiatni bilishga va uning hodisalari haqida ma’lumot yig’ishga kirishib dastlabki faoliyatini boshlaydi. Faoliyat bilishdan boshlanadi. Bilish tabiat ne’matlarini inson tomonidan su’niy muhitga moslashtirishda asosiy o’rin egallaydi.

Bilish sezgidan boshlanadi, degan tamoyil ma’lum. Farobiy ajoyib bir fikrni aytgan:” Ilm qilish uchun, avvalo tabiatni bilish kerak, bilish tasavvurdan boshlanib, tasdiqda tugallanadi.<sup>1</sup> Ilm qilish uchun tabiatni bilish kerak degan tamoyilni amalga oshirish insondan bilim va usullarni bilishni talab qiladi. Insonning bilimi va uning yordamida shakllangan usullar yordamida inson tabiatning muhim qonuniyatlarini bilishga o’zida kuch topa oladi. Gegel tabiricha, usul-tadqiqot mazmunining joni va zo’r vositasi.<sup>2</sup> Har qanday usul bilish shakllarini tarkibiy qismiga kirib, uni to’ldiradi. Insonning ijtimoiy tajribasi bilish shakllari bergan xulosalar asosida o’sib, rivojlanib, takomillashib boradi. Insonning ijtimoiy tajribasi rivojlanib borishida bilish shakllariga kiruvchi kuzatish usulining ahamiyati kattadir.

Kuzatish-bilish obyektining muhim xossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok etishdir. Kuzatishlarning natijalari bizga borliq haqida ilmiy dalillar ko’rinishida dastlabki axborotni beradi.<sup>3</sup> Kuzatish natijasida inson o’rganayotgan obyektini o’zlariga noma’lum tomonlari haqidagi ma’lumotni qo’lga kiritadilar. Kuzatish usulining tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. So’nggi paleolet davrida g’or devorlariga chizilgan rasmlar ham o’sha davr odamlarining fikrlash tarziga mos ravishda hayvonot dunyosi va tabiat hodisalarini kuzatishlari orqali to’plangan ijtimoiy tajriba, insonlarni hayvonot dunyosidan va tabiat ne’matlaridan o’zlarining ehtiyojlari uchun ularni (ovlash, qo’lga o’rgatish zaxira sifatida foydalanishlari uchun tezkor ovlash usuli sifatida devorlarga hayvonlarni rasmlarini chizishgan. Devordagi hayvon rasmlariga qarab taqlid sifatida ularga nayza sanchishgan. Keyinchalik mezolet davriga kelib insonlar hayvonlarni ovlash uchun o’q-yoyni kashf etdi. O’q-yoyni kashf etilishiga ham so’ngi paleolet davrida yaratilgan devoriy sur’atlar insonlarga nazarariy asos bo’lib xizmat qildi.

Rasm va o’q-yoyni ham insonlar, o’zlarining ijtimoiy hayotdagi yashash ehtiyojlariga kerakligini bilib ularni yaratishni avval fikriy tarzda o’ylab idrok qilib

<sup>1</sup> Fayzulayev O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. T: falsafa. 2006. B.37.

<sup>2</sup> Fayzulayev O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. T: falsafa. 2006. B.37.

<sup>3</sup> Shermuhammedova N.A. Gnesologiya va bilish nazariyasi. T.2011. B.176.

tasavvurlari orqali yaratib keyin amalda sinaganlar. Bu davrda ko'proq hissiy bilish shakllari kuchli rol o'ynagan. Davrlarning o'tishi bilan davlatchilikni tashkil topishi va fanlarni vujudga kelishini tezlashtirdi. Insonlar tabiat ne'matlarini o'zlashtirishda emperik bilish shakllariga o'tib oldi.

Har qanday bilish jarayoni odamni qiziqtiradigan, muammoli vaziyatdan boshlanadi. Fanda bu ishlar amaldagi dalillardan, shu vaqtgacha erishilgan yutuqlardan boshlanadi. Ya'ni bor narsalarni kuzatishdan, kerak bo'lsa eksprement o'tkazishdan boshlanadi. Fan tarixida bunga misollar juda ko'p. Ijodiyot inson faoliyatining yangi narsalar yoki qadriyatlar yaratishga qaratilgan faoliyatini bildiradi. Ijodiyotga aniqroq qilib quydagi tarifni berish mumkin. Ijodiyot-bu insonni toboro takomillashib borayotgan xilma-xil ehtiyojlarini qondiradigan yangidan-yangi moddiy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar yaratish faoliyatidir. Fanda yaratilgan yangi g'oyalar, nazariyalar va texnologik lohihalari ma'naviy qadriyatlar turiga kiradi.<sup>4</sup> Insonlarning ijodiy faoliyatlari natijasida yaratilgan har qanday g'oyada tabiat va jamiyatdagi biror-bir narsani javobi isbotlanadi. Bu esa ko'proq ma'naviy qadriyatlar yaratilishi bilan tugallanadi. Inson tomonidan o'zlashtirilgan obyektlar avval mamnaviy yaratilib keyin moddiylikka aylanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki usul yordamida inson faoliyatini tizimga, sistemaga solinadi. Dunyoning eng mayda zarrasidan tortib to planetalarni ham inson muayyan usullar yordamida o'rganib yangi-yangi g'oylarni yaratadilar. Bu g'oyalar insonning mazmunli hayot kechirishida va insonson ma'naviy borlig'ini tiklanishida asosiy o'rin egallashi bilan juda muhimdir.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

- 1-Fayzulayev O.Falsafa va fanlar metodologiyasi. T:falsafa. 2006.B.37.
- 2-Shermuhammedova N.A. Gnesologiya va bilish nazariyasi.T.2011.B.176
- 3-Qo'shoqov Sh.S. Ilmiy tadqiqot metadologiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2014.B.24.

---

<sup>4</sup>.Qo'shoqov Sh.S. Ilmiy tadqiqot metadologiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2014.B.24.